

XALQARO TERRORIZM XALQARO JINOYAT SIFATIDA

Rustamqulova Munisa Doniyor qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti, Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: *jamiat va davlat rivojlanib borar ekan, ijtimoiy munosabatlar va insonlarning ushbu munosabatlardan kutayotgan natijalari va ushbu munosabatlarning vujudga kelishiga sababchi bo'lgan manfatlari ham rivojlanib bormoqda. Insoniyat o'z maqsadlariga erishish uchun, ming afsuslar bo'lsinki jinoyat yo'lidan ham foydalanishmoqda. Ushbu jinoyatlar ichida xalqaro hamjamiyat uchun xavfli bo'lgan va insonlarni osoyishta hayotlarini buzadigan jinoyat sifatida terrorizmni keltirishimiz mumkin. Ushbu maqolani o'qish davomida siz xalqaro jinoyat nima ekanligi, uning turlari va xalqaro jinoyatlardan biri bo'lmish xalqaro terrorizm, uning vujudga kelish sabablari va uni oldini olish tavsiyalar bilan tanishasiz.*

Kalit so'zlar: *Xalqaro jinoyat, xalqaro delikt, xalqaro terrorizm, mahalliy terrorizm.*

Kirish:

Dunyo rivojlanib borar ekan u bilan teng ravishda ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib bormoqda. Bu ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi ba'zida insonlar tomonidan qabiq ishlarni amalga oshirilishiga olib kelmoqda. Hozirda terrorizm dunyo xamjamiati uchun katta muammo bo'lib kelmoqda. Terrozm ko'pchilik insonlarning hayotini tugashiga, bolalarni ota ona aka uka opa singlisi siz qolishiga zamin yaratmoqda. Global terrorizm indeksiga qaraydigan bo'lsak, terrorizmdan eng ko'p aziyat chekkan mamlakatlar sifatida Burkino-Fasoni keltirishimiz mumkin. 2024-yilgi statistikaga asosan, ushbu yilda 111 marta terrorchilik harakati amalga oshirilib, nda 1532 nafar inson vafot etgan. Dunyo

bo'ylab olib qarasam, 8 352 nafar inson ayni terrorizm asosida vafot etgan. Shu sababli, ushbu maqola davomida men xalqaro jinoyat sohasida terrorizmning o'rni va uning vujudga kelish sabablari hamda oldini olish bo'yicha tavsiyalarga to'xtalib o'taman.

Uslublar:

Ushbu masalani tushunish va tadqiq qilish, shuningdek ushbu masala yuzasidan maqola yozish bizdan ko'p mehnat va tadqiqot usullari-yu, metodlaridan foydalanishimizni talab etadi. Xalqaro terrorizmni xalqaro jinoyat sifatida o'rganish uchun ishlatilgan asosiy metodlarida sifatida biz quyidagilarni keltira olamiz:

Maqolamiz mavzusi bo'lgan Xalqaro terrorizm va xalqaro jinoyat haqidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan manbalar haqida umumiy ma'lumot :

Bir qancha olimlar tomonidan yozilgan xalqaro huquq va xalqaro jinoyat huquqi haqida kitoblarning o'rganilishi asnosida, Insondan Xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro terrorizm haqidagi tayanch tushunchalar hosil bo'ladi. Ushbu adabiyotlarga biz ilmiy maqolalar, kitoblar, amaliy tadqiqotlar va yuridik jurnallarning o'z ichiga oladi.

Xalqaro terrorizm haqida statistikalarini o'rganish va tahlil etish

Xalqaro mavzu haqida yozilar ekan, statistikalar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular muhokama qilinayotgan masalani asli qanday ekanligi, shuningdek unga nisbatan dunyoning boshqa chekkasidagi is on qanday fikr yuritayotgan haqida ma'lumot bera oladi.

Natija:

Xalqaro terrorizm va uning xavfli ekanligi haqidagi tadqiqotlar va materiallar ga to'xtalishdan avval, xalqaro jinoyat nima ekanligiga

to'xtalmoqchiman. Xalqaro jinoyatlar deb insoniyat uchun xavfli bo'lgan, xalqaro hamjamiyat uchun xavfli hamda ularning manfaatlariga va tinchlikka tahdid soluvchi xalqaro huquq normalari va prinsiplarining buzilishi xalqaro jinoyatni vujudga keltiradi. Xalqaro jinoyatlar xalqaro jinoyat huquqi bilan o'rganiladi va tartibga solinadi. Xalqaro jinoyat huquqi bu davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorligini tartibga soluvchi printsiplarning majmui hisoblanadi. Xalqaro jinoyat huquqi iborasi 19 asrning oxiri 20 asrning boshlarida paydo bo'lgan. Xalqaro jinoyat huquqi fani doirasida xalqaro jinoyat, xalqaro xarakterdagi jinoyat va xalqaro deliktlar kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular fan doirasida o'rganiladi. Ularning farqini aniqlash uchun ushbu tushunchalarining ma'nosiga to'xtalishim lozim. **Xalqaro deliktlar**-Xalqaro jinoyatlar toifasiga kirmaydigan huquqbuzarliklar xalqaro deliktlar hisoblanadi. Delikt natijasida yuzaga keladigan javobgarlik ikkitomonlama huquqbuzarlik mazmuniga ega bo'lib, unga ko'ra, qoidabuzar faqat jabrlanuvchi oldida javobgardir. **Xalqaro jinoyatlar** esa insoniyat uchun xavfli bo'lgan, xalqaro hamjamiyat uchun xavfli hamda ularning manfaatlariga va tinchlikka tahdid soluvchi xalqaro huquq normalari va prinsiplarining buzilishidir. Xalqaro xarakterdagi jinoyatning xalqaro jinoyatlardan farqlarni mavjud bo'lib, ulardan biri ushbu sodir etilgan jinoyatlarning subyektlaridir. Xalqaro jinoyatlarda davlat mexanizmlaridan jinoiy maqsadda foydalanuvchi davlatlar, ularning mansabdor shaxslari va ijrochilar subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Xalqaro xarakterga ega bo'lgan jinoyatlarning subyektlari esa jismoniy shaxslar bo'ladi. Xalqaro jinoyatlarni obyekt xalqaro tinchlik va insoniyat xavfsizligi butun insoniyat manfaatlari hisoblanadi, xalqaro xarakterdagi jinoyatlarni ob'ekti esa 2 yoki bir necha davlatlarning manfaatlari hisoblanadi. Xalqaro jinoyat sodir etilgan hollarda javobgarlik universal bo'ladi

ya'ni huquqbuzar nafaqat jabrlanuvchi oldida balki xalqaro hamjamiyatning oldida javobgar bo'ladi ayniqsa "erga omnes" holatlarida. Xalqaro jinoyatlar ro'yxati tarixda birinchi bor 1945 yilda qabul qilingan Nyurnberg xalqaro harbiy tribunalining nizomida o'z aksini topgan. Unga asosan, xalqaro jinoyatlarni biz 3 ta turkumga bo'lishimiz mumkin:

1. Tinchlikka qarshi jinoyatlar
2. Harbiy jinoyatlar
3. Insoniyatga qarshi jinoyatlar

Tinchlikka qarshi jinoyatlar sirasiga biz agressiyani misol sifatida keltirishimiz mumkin va tinchlikka qarshi jinoyatlar bosqinchilik urushni rejalashtirish, unga tayyorlanish yoki unga yo'l ochish, shuningdek uni amalga oshirish va xalqaro shartnomalar yoxud ahlashuvlarni buzib urish olib borish yoki bunday harakatlarni birortasini amalga oshirishga yo'naltirilgan reja yoki fitnada ishtirok deya ta'riflanadi.

Xalqaro jinoyatlarning ikkinchi turi urush qoidalari va odatlarini buzish bilan bog'liq bo'lib harbiy jinoyatlar deyiladi. Harbiy jinoyatlar sifatida biz quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- a) istilo etilgan hududlar aholisini o'ldirish qiynoqqa solish yoki majburiy mehnat uchun haydab ketish
- b) harbiy asirlarni o'ldirish yoki qiynoqqa solish
- c) garovdagilarni o'ldirish
- d) umumiy mulki va xususiy mulkni talon taroj etish
- e) harbiy zarurat talab etmagan holatlarda shaharlar va qishloqlarni maqsadsiz ravishda yakson qilish, xonavayron etish va boshqa shu kabi xati-harakatlarni sodir etish kabilarni keltirishimiz mumkin.

Undan tashqari sobiq Yugoslaviya uchun tribunal Nizomida ushbu ro'yxat kengaytirilib unga:

- f) biologik sinovlar
- g) fuqarolarni garovga olish
- h) harbiy asir yoki fuqaroni odil sudlov huquqidan mahrum qilish
- I) harbiy yoki fuqaroni dushman tomonning qiroli kuchlarida xizmat qilishga majburlash kiritilgan

Uchinchi turkum jinoyatlar insoniyatga qarshi jinoyatlar hisoblanib, unga genotsid, aparteid, bioisid kabilar kiradi. Xalqaro harakterdagi jinoyatlar sirasiga esa qulchilik, odam savdosi, pullarni qalbakilashtirish, uyushgan jinoyatchilik, jinoiy daromadlarni legallashtirish, ekologik jinoyatlar, korrupsiya, madaniy boyliklarni yo'q qilish, terrorizm, giyohvandlik kabi jinoyatlar kirishi mumkin. Mavzuimizning asosi bo'lmish Terrorizm haqida gapirar ekanman bevosita O'zbekiston Respublikasining Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi Qonuniga yuzlanmoqchiman. Ushbu Qonunning 2-moddasida terrorizmga tushunchasiga ta'rif berilgan. Unga binoan, terrorizm — siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish

yoki boshqa jinoiy qilmishlari hisoblanadi. AQShning ichki xavfsizlik va tergov organi bo'lmish, FBI saytida o'z aksini topgan ta'rifga asosan, terrorizm 2 ga bo'lingan, Xalqaro va Mahalliy.

Xalqaro terrorizm: Belgilangan xorijiy terroristik tashkilotlar yoki davlatlar (davlat tomonidan homiylik qilingan) tomonidan ilhomlantirilgan yoki ular bilan bog'langan shaxslar va/yoki guruhlar tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik, jinoiy harakatlar.

Mahalliy terrorizm: siyosiy, diniy, ijtimoiy, irqiy yoki atrof-muhitga oid mafkuraviy maqsadlarni ilgari surish uchun shaxslar va/yoki guruhlar tomonidan mamlakat ichida sodir etilgan zo'ravon, jinoyat xarakteridagi harakatlardir. Xalqaro terrorizm haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lgan ekanmiz endi raqamli statistikaga o'tishimiz mumkin. Ushbu raqamlarni aniqlashda turli xil uslublar dan foydalandim, jumladan so'rovnoma o'tkazdim va internetdagi ma'lumotlarni tahlil qildim. So'rovnomada xalqaro terrorizm insoniyat uchun xavfli I degan savol qo'yilgan bo'lib, ushbu so'rovnomada 18 nafar inson ishtirok etdi va ularning 61% ushbu holatni xavfli deb topdi, 39% esa xavfli emas deb topdi. Undan tashqari, tadqiqotlarim natijasida Gallup World Pollning "Perception of Global Threats" degan, ya'ni " Global tahdidlarga nisbatan qarashlar" deb nomlangan tadqiqotga duch keldim. Ushbu tadqiqotda ishtirok etgan insonlarning 41 % terrorizmni eng katta global xavf deb bildi. Yuqoridagi raqamlardan ko'rishimiz mumkin-ki, dunyodagi ko'pchilik insonlar terrorizmni eng katta xavf deb biladi.

Terrorizm haqida umumiy tushunchalar ega bo'lgan ekanmiz, endi uning kelib chiqish sabablari haqida to'xtalsam. Ho'sh, sizning terrorizm nima sababdan sodir etiladi??? Ushbu savolga javob berish mashaqqatli va subyektiv bo'lib ushbu

holat yuzasidan hanuzgacha dunyoda aniq ko'rsatilgan sabablar mavjud emas. Ko'pchilik mashxur olimlar o'z kitoblarida o'zlarining subyektiv qarashlarini keltirib o'tadilar va ushbu sabab tufayli barcha adabiyotlardan turli xil sabablarga duch kelishimiz mumkin. Ushbu olimlardan biri bo'lmish P. Wilkinson etnik, diniy yoki mafkuraviy mojarolar, qashshoqlik, modernizatsiyaning salbiy oqibatlar, adolatsizlik, jamiyatdagi inqilobiy kayfiyat, zaif hukumatlar yoki ichki hokimiyat uchun kurashni sabablar sifatida keltirgan. T. Byorg esa terrozm sabablarini 4 turkumga ajratgan:

A. Strukturaviy sabablar, uning fikriga ko'ra, demografik nomutanosiblik, globalizatsiya, modernizatsiya, urbanizatsiya, migratsiya va ijtimoiy o'zgarishlar va boshqa narsalar kiradi.

B. asosiy sabablar bo'lmagan, ammo shunga qaramay terrorizmdagi manfaatlarni rag'batlantiradigan yoki terroristik vositalardan foydalanishni osonlashtiradigan (masalan, davlat tuzilmalarining zaiflashishi yoki qurolga oson kirish) "tezlatgichlar" deb nomlangan.

C. motivatsion sabablar, masalan, ba'zi shaxslarni muayyan qadamlar qo'yishga undashi mumkin bo'lgan adolatsizlik hissi.

D. shaxsiy va guruh darajasida terrorchilik faoliyati uchun dastlabki uchqunni ta'minlaydigan "detonatorlar" (masalan, 1972 yilda Irlandiyada qonli yakshanba).

Ushbu muallif terrorizm sabablarini tasniflashning yana bir usulini ishlab chiqqan bo'lib, unda 6 ta toifaga bo'linadi: A. diniy va madaniy manbalar; B. territorial va etnik manbalar; C. ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar; D. siyosiy-tarixiy sabablar; E. terrorizmning psixologik manbalari; F. boshqa tanlangan sabablar.

Yuqoridagilarga ko‘rishimiz mumkin-kin, ushbu Jinoyatni sodir etish uchun turli xil faktorlar sabab bo‘lishi mumkin.

Muhokama:

Yuqoridagi statistikalardan ham ko‘rishimiz mumkin-ki, dunyoning ba'zi bir mamlakatlarida terrorchilik harakatlari va uning qurbonlari soni ushbu holatni oldini olish uchun o‘z faoliyatini olib borayotgan hujjatlar, jumladan:

1. Terroristik portlashlarni taqiqlash to‘g‘risidagi konvensiya
2. Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi konvensiya
3. Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi

Shanxay konvensiyasi mavjud ekanligiga qaramay oshib bormoqda. Ushbu holatga chek qo‘yish, ya’ni terrorchilik harakatlarini oldini olish uchun bir qancha faoliyatlar amalga oshirilishi mumkin. Masalan, 1 taklifni aytsam, ushbu sohada yetarlicha normativ-huquqiy hujjatlarning mavjud ekanligi va yuqoridagi holatlar amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ushbu holat bilan shug‘ullanuvchi va unga chek qo‘yuvchi davlat muassasalarining mavjud ekanligi, shuningdek davlatlararo tashkilotlar tomonidan ushbu sohada hujjatlar, jumladan konvensiya, paktlarning mavjud ekanligi va davlatlarning ushbu paktlarga a'zo ekanligi. Agar yuqoridagi taklifim amalga oshirilsa, davlatda mahalliy terrorchilik harakatlarini oldini olish, shuningdek sodir etilgan terrorchilik harakatlari uchun qonunda javobgarlikning mavjud ekanligi orqali ularni javobgarlikka tortish mumkin. Ushbu jinoyat uchun berilgan jazolarning kuchli ekanligi boshqa insonlar uchun tarbiyaviy xarakterga ega bo‘ladi va ularni jinoyat sodir etishdan tiyadi. Xalqaro terrorizmni oldini olish uchun esa davlatlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim. Ikkinchi taklif esa, davlatlar o‘z faoliyatida terrorizm sohasida Ai monitoringni kuchaytirishlari bilan bog‘liq. Masalan, agar kimdir ijtimoiy tarmoqlar orqali terrorchilik harakatlariga

da'vat qilayotgan bo'lsa, Ai monitoring orqali ularni osonlik bilan aniqlash va to'xtatish mumkin.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni ayta olaman-ki, yuqoridagi statistika va fikrlarimga asosan terrozim insonlarning hayotlarini zaxarlayotgan, ularni yaqinlaridan ayirayotgan va kelajakdagi orzu va maqsadlariga to'sqinlik qilayotgan, rivojlanishni ortga tortadigan jinoyatdir. Ushbu jinoyatni oldini olish zarur. Aks holda, ilm - fan rivojlanar va yana bir qancha xavfli bo'lgan urush qurollari yaratila ekan, undan foydalanilishi oqibatida yer shariga Katta ziyon yetkazilishini mumkin

Ushbu jinoyatni oldini olish nafaqat bir mamlakat va jamiyatning, balki butun xalqaro hamjamiyatning burchi va vazifasi deyishimiz mumkin. Ushbu holatlarni amalga oshirishda xalqaro hamkorlikni va uni taqiqlaydigan qonunchilikni rivojlantirish uchun shart sharoitlarni yaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rahimova, Muattara. 2005. Xalqaro huquq. Toshkent: "Akademiya" nashriyoti. pp. 158–161, 176–187.
2. Saidov, Akmal. 2001. Xalqaro huquq. Toshkent: "Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. pp. 228–238.
3. Lukashuk, I. I., and A. X. Saidov. 2007. Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati nashriyoti. pp. 273–280.
4. Bjørge, Tore, ed. 2005. Root Causes of Terrorism: Myths, Reality and Ways Forward. London–New York: Routledge.

-
5. Wilkinson, Paul. 1974. Political Terrorism. London: Macmillan Press.
6. Vision of Humanity. n.d. "Global Terrorism Index." Retrieved October 30, 2025 (<https://www.visionofhumanity.org/maps/global-terrorism-index/#/>).